O'zbekistonda transport infratuzilmasini rivojlantirish karidorlari	968
Nazriyev Umidjon Baxrillayevich	
Aylanma kapital bilan ishlashda samaradorlikni oshirish: korxonalar moliya siyosatini takomillashtirish yo'nalishlarida data science yondashuvlari	975
Khoshimov Doniyor, Kungratov Ilmurod Kuzibay o'g'li	
Davlat ulushi mavjud bo'lgan korxonalarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda raqamli transformatsiyaning roli	982
Musurmonov Mehroj Murtaza o'g'li	
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda tijorat banklariga moliyaviy resurslarni jalb qilish metodologiyasini takomillashtirish	988
Hamrayev Obid Akhatovich	
Tibbiy xizmatlarda raqamli texnologiyalarni joriy etish va uning samaradorlikka ta'siri (xorijiy tajriba).....	993
Usmonova Vasila Botirovna	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarish amaliyoti tahlili.....	997
Akramova Nargiza Nutfillayevna	
Using integrated marketing communications (IMC) in business management	1002
Ziyayeva M.M.	
Xorijiy mamlakatlarda tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish masalalari va ulardan o'zbekistonda foydalanish istiqbollari.....	1006
Jaxongirov Ilimdorjon Jahongirjon o'g'li	
Davlat budjetining ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi xarajatlarini samarali boshqarish yo'llari.....	1011
Qo'ziyev Shodiyor Qilichboy o'g'li	
Mintaqada xalq hunarmandchiligida klasterlash va ekologik logistika modeli asosida savdo tizimini shakllantirish.....	1015
Norqobilova Feruza Abduhomidovna	
To'g'ri xarajatlar usuli va to'liq yutuvchi xarajatlar usuli tizimlarining afzalliklari va farqli jihatlari amaliy misolda.....	1019
Kholisa Kamoliddinovna Kuldosheva	
Investitsiyalarni innovatsiyalarga yo'naltirish bo'yicha xorij tajribasi.....	1024
Ayubov Ilyos Iloxomovich	
Важность разработки стратегических программ развития страны.....	1028
Каримова Нуржахон Олим кизи	
Sanoat korxonasining raqamli transformatsiyasini baholash omillari va ko'rsatkichlari.....	1032
Kudaybergenov Azamat Shamuratovich	
Namangan viloyatida ijtimoiy turizm tadbirkorligini maqsadli boshqarish mexanizmi.....	1042
Yunusova Sohiba Abdumamidovna	
Evaluating the capital asset pricing model methodology in uzbekistan companies	1048
Bunyod Usmonov	
Aholini ish bilan bandligining yangi turlari va imkoniyatlari.....	1055
A.B. Khayitov	
Maktab direktorlarini qo'llab-quvvatlashda asosiy ustun amaliyotlar va o'zbekiston ta'lim tizimida ularni qo'llash imkoniyatlari.....	1059
Mamura Tadjibayeva	
Sun'iy intellekt asosida matematik masalalarni yechish algoritmlari	1064
Oqnazarov To'liqin Jalilovich, Jo'rayev Mardon	
Global ta'lim makonida milliy tarbiyani rivojlantirish istiqbollari	1071
Sanaqulov Sardor Istamqulovich	



Bank xizmatlari sifati va bank daromadlariga ta'sir etuvchi omil sifatida personal faoliyatining o'rni.....	1075
Abdukaxarova Shoira Abduvahobovna	
Fond bozori raqamli iqtisodiyotda investitsiyalarni shakllantirish manbai sifatida.....	1079
Kamilova Sevara Anvarovna	
O'zbekistonda toza suv va sanitariyaning inson hayoti hamda iqtisodiy farovonlikka ta'siri: BRM-6 doirasida tahlil.....	1085
Xasanova Iroda Azizbek qizi	
Increasing the effectiveness of using marketing communications in the tourism services market.....	1090
Sobirjonov Asrorbek Sobitjon ugli	
Davlat xaridlari sohasini takomillashtirish istiqbollari.....	1095
Bazarov Nazirjon Sobirovich	
Xarajatlarning strategik boshqaruv hisobini xo'jalik yurituvchi subyektlarda takomillashtirish.....	1103
Xayitboeva Laylo Oybekovna	
Davlat moliyaviy nazorati tizimida tashqi audit: rivojlangan mamlakatlar amaliyoti.....	1109
Kuliyev Komil Shuxratovich, A.Astanovulov	
Moliyaviy instrumentlarni hisobga olishda biznes modelning ahamiyati va amaliy yondashuvlar.....	1114
Shanasirova Nodira Abdullayevna	
Tijorat banklarida risklarni boshqarishning ustuvor yo'nalishlari.....	1118
Tursunov Ilxom Toirovich	



TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Tursunov Ilxom Toirovich

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0009-0009-4673-3086

Annotatsiya: Mazkur maqolada tijorat banklarida risklarning iqtisodiy mazmuni, vujudga kelish sabablari va oqibatlarini bayon etilgan. Iqtisodchi olimlar tomonidan tijorat banklari risklarining iqtisodiy mazmuniga doir xulosalar yoritilgan. Bank risklarining turlari va ularni boshqarishning tashkiliy tuzilmasi ishlab chiqilgan. Tijorat banklarida risklarni boshqarish mexanizmini takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, risklar, valyuta, kredit, foiz stavka, investitsiya, qimmatli qog'ozlar, milliy iqtisodiyot, moliyaviy instrument.

Abstract: This article presents the economic essence of risks in commercial banks, their causes, and consequences. The conclusions of economists regarding the economic nature of banking risks are highlighted. The types of banking risks and the organizational structure for managing them have been developed. Proposals for improving the risk management mechanism in commercial banks are provided.

Key words: commercial banks, risks, currency, credit, interest rate, investment, securities, national economy, financial instrument.

Аннотация: В данной статье изложена экономическая сущность рисков в коммерческих банках, причины их возникновения и возможные последствия. Освещены научные выводы экономистов по вопросу экономической природы банковских рисков. Разработана классификация видов банковских рисков и организационная структура их управления. Предложены рекомендации по совершенствованию механизма управления рисками в коммерческих банках.

Ключевые слова: коммерческие банки, риски, валюта, кредит, процентная ставка, инвестиции, ценные бумаги, национальная экономика, финансовый инструмент.

KIRISH

Zamonaviy bozor munosabatlarning rivojlanishi sharoitida iqtisodiyotning yetakchi bo'g'inlaridan biri sifatida tijorat banklari muhim o'rin egallaydi. Aynan banklar davlatning pul-kredit va monetar siyosatini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Tijorat banklari kapital oqimlari harakatini tartibga solib, jamiyat moliyaviy resurslaridan samarali foydalanilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Ma'lumki, tijorat banklari yuqori risk sharoitida faoliyat yurituvchi moliyaviy muassasalardan biri hisoblanadi. Odatda, yuqori darajadagi riskga ega bo'lgan banklar yuqori daromad olish salohiyatiga ega deb hisoblanadi. Tijorat banklari faoliyatini baholash esa murakkab vazifalardan biri sanaladi. Risklarni samarali boshqarish bankning uzoq muddatli muvaffaqiyati va barqarorligini ta'minlash uchun zarur hisoblanadi.

Ta'kidlash kerakki, so'nggi yillarda mamlakatimiz amaliyotida tijorat banklarida risklarni boshqarishning ilmiy-amaliy jihatlari takomillashtirishga doir ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, tijorat banklarida risklarni boshqarishga doir aniq mexanizmlarni ishlab chiqishga olib kelmoqda. Jumladan, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da [1] bank tizimida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Unda Xalqaro valyuta jamg'armasi ko'magida iqtisodiyotda vujudga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarni aniqlash, ularning bank tizimi barqarorligiga ta'sirini baholashga qaratilgan stress-test modellarini ishlab chiqish amaliy chora-tadbirlar sifatida nazarda tutilgan.

Shunga muvofiq, 2023-yil 7-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 4/11-son qaroriga asosan "Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to'g'risida"gi Nizom [2] ishlab chiqildi. Mazkur Nizom banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablari va asosiy prinsiplarini belgilaydi.

Ko'rinib turibdiki, tijorat banklarida risklarni boshqarish mexanizmini xalqaro amaliyot tajribalaridan kelib chiqqan holda rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir.



Tijorat banklari risklarni boshqarish uchun turli xil vosita va usullardan foydalanadi, jumladan: risklarni baholash, risklarni kamaytirish strategiyalari, risklarni monitoring qilish hamda risklar haqida hisobot berish. Potensial risklarni aniqlash va tegishli nazoratni amalga oshirish orqali tijorat banklari ularning moliyaviy faoliyatiga ta'sir etuvchi salbiy hodisalar ehtimolini kamaytirishi mumkin.

Risklarni noto'g'ri boshqarish moliyaviy yo'qotishlarga, obro'ga putur yetkazishga, tartibga soluvchi sanksiyalarga va hatto bankning muvaffaqiyatsizligiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, tijorat banklari manfaatdor tomonlarni himoya qilish va ularning doimiy muvaffaqiyatini ta'minlash uchun mustahkam risklarni boshqarish tizimlariga ega bo'lishlari juda muhimdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarida risklarni boshqarishga doir mamlakatimiz va xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, ularning ilmiy xulosalarida moliyaviy risklarning iqtisodiy mazmuni, ularning kelib chiqish sabablari va tijorat banklarining moliyaviy barqarorligiga risklar ta'siri yoritilgan.

Bank sohasida risklarni boshqarish tobora ortib borayotgan noaniq iqtisodiy muhit sababli kundan-kunga dolzarblik kasb etmoqda. Mamlakat rivojlanishida banklarning roli ortib borayotgan bo'lsa-da, ushbu moliyaviy muassasalarni boshqaruvchi organlar turli tavakkalchiliklarga duch kelmoqda. Risklarni boshqarish har qanday moliyaviy tashkilotning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligiga olib keluvchi asosiy omil sifatida qaralmoqda [3].

Liberallashtirish, globallashtirish va kompyuter texnologiyalarining jadal rivojlanishi yangi biznes imkoniyatlarini yaratish barobarida, iqtisodiy va moliyaviy tuzilmalar oldiga o'tmishga nisbatan ancha murakkab va xilma-xil risklarning yuzaga kelishiga olib kelmoqda. Risklarni aniqlash, baholash va nazorat qilish bugungi kunda kompaniya va strategik boshqaruvda har qachongidan muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Moliyaviy risklar — ayniqsa, bozor sharoitiga bog'liq holda kompaniya qiymatini belgilaydigan fond birjasida ro'yxatga olingan kompaniyalar uchun — ko'plab kompaniyalar duch keladigan asosiy muammolardan biridir. Barcha kompaniyalar uchun umumiy bo'lgan asosiy risk turlariga likvidlik, kredit, bozor risklari va boshqa turdagi nomoliyaviy risklar kiradi [4].

Moliyaviy risklar — tijorat banklarining kutilmagan vaziyatda foydaning o'zgarishi, ololmasligi yoki tebranishidir. Xalqaro amaliyot tajribasidan ma'lumki, tijorat banklari faoliyatida moliyaviy risklar keng ko'lamli bo'lib, ular bankning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi [5]. "Moliyaviy risk" atamasi moliyalashtirishga oid turli risklarni, jumladan, korporativ defolt risklari bilan bog'liq moliyaviy operatsiyalarni o'z ichiga olgan umumiy tushuncha sifatida ishlatiladi.

Moliyaviy risklar, asosan, aktivlar o'zgaruvchanligiga bog'liq ravishda fond bozorida ehtimoliy pasayishlar orqali yuzaga keladi. Bu odatda qarz majburiyatlari bilan bog'liq bo'lib, joriy aktivlar va majburiyatlar o'rtasidagi nomutanosiblik ehtimoli bilan belgilanadi [6].

Tijorat banklari faoliyatida kredit risklarining ta'siri boshqa risklarga nisbatan ancha yuqori. Buni bir necha asosiy sabablarga ko'ra izohlash mumkin: birinchidan, kreditlar tijorat banklari aktivlari umumiy hajmidagi ulushining yuqoriligi; ikkinchidan, kreditlarning qaytmasligi bankning likvidlik darajasini pasaytiradi; uchinchidan, kreditlarning o'z vaqtida va to'liq qaytmasligi foizli daromadlarning kamayishiga olib keladi, bu esa bankning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi [7].

Risklarni boshqarish strategiyasini kompaniyaning umumiy rivojlanish strategiyasi bilan muvofiqlashtirish zarur. Strategiya tashkilot missiyasi va qarashlarini qo'llab-quvvatlashi, asosiy qadriyatlar va risklarga nisbatan «risk appetiti» bilan mos kelishi lozim. Aks holda, banklar o'z missiyasi va qarashlariga erisha olmasligi mumkin. Nomutanosib strategiya esa manfaatdor tomonlar uchun riskni oshiradi, chunki u kompaniya qiymati va obro'siga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin [8].

Risklarning bank daromadiga ta'sirini baholash va ularni kamaytirish maqsadida risklarni turli belgilari asosida tasniflash muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, risklarni belgilari va mezonlari asosida tizimlashtirish, ularni kichik guruhlarga ajratgan holda umumiy tushunchalarga birlashtirish, ushbu faoliyat bilan shug'ullanayotgan subyektning motivatsiyasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Fikrimizcha, banklarda moliyaviy risklarni boshqarish — ko'p qirrali, xilma-xil va ba'zan bir-biriga zid bo'lgan real asoslarga ega bo'lgan moliyaviy risklarning murakkab tabiati bilan bevosita bog'liq hisoblanadi [9].

Yuqorida iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan tariflarni tahlil qilar ekanmiz, tijorat banklari faoliyatida moliyaviy risklar obyektiv voqelik bo'lib, boshqa moliya muassasalariga nisbatan eng ko'p uchraydigan risk turlarini o'z ichiga oladi. Tijorat banklarining moliyaviy risklarni boshqarishdagi asosiy vazifalaridan biri esa, risklarning kelib chiqish sabablari va omillarini tizimli tahlil qilish orqali ularning ta'sirini minimallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishdan iboratdir.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy tadqiqot davomida mantiqiy va tarkibiy tahlil, o'zaro hamda qiyosiy taqqoslash, umumlashtirish, guruhlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash va istiqbolli prognozlash usullaridan samarali foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va uzoq muddatli muvaffaqiyati risklarni samarali boshqarish tizimiga bevosita bog'liqdir. Bank risklarini samarali boshqarishni ta'minlash uchun risklarga ta'sir etuvchi omillarni ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Umuman olganda, risklar kelib chiqish manbalariga ko'ra tashqi va ichki turlarga ajratiladi.

Risklarni boshqarish jarayoni strategiya va taktikani ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Strategiya belgilangan maqsadlarga erishish yo'llarini aniqlash, risklarni uzoq muddatli prognozlash hamda strategik rejalashtirish orqali boshqarishni nazarda tutadi. Risklarni boshqarish strategiyasini tanlashda bank faoliyatining uzluksizligini ta'minlash, shuningdek, bank qabul qiladigan risklar va foydalilik darajasi o'rtasida optimal muvozanatni ta'minlash zarurdir.

O'z navbatida, strategiya asosida risklarni boshqaruv taktikasi ishlab chiqilib, belgilangan maqsadlarga erishish uchun aniq metodlar va vositalarni o'z ichiga oladi. Banklarda risklarni boshqarish taktikasini ishlab chiqishning asosiy maqsadi — strategiyaga zid bo'lmagan holda eng maqbul qarorlarni tanlash, mavjud shart-sharoitda eng samarali boshqaruv usullarini qo'llash orqali risk darajasini kamaytirishga ko'maklashishdan iboratdir.

Tijorat banklarida risklarning quyidagi turlari mavjud bo'lib, ularning har biri boshqarish va yondashuv usullari jihatidan farq qiladi (1-jadval). Albatta, moliyaviy risklarni boshqarishda risklarning barcha tasnifiy jihatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga egadir.

Masalan, kredit riski bank faoliyatida eng keng tarqalgan risk turlaridan biri bo'lib, uni boshqarishda qarz oluvchilarning moliyaviy holati, barqarorligi va kredit tarixini tizimli o'rganish zarur. Likvidlik riski esa bank majburiyatlarini o'z vaqtida bajara olish qobiliyatini ifodalaydi. Bu riskni oldini olish uchun banklar zaxira siyosati va kutilmagan holatlarga tayyor rejalarni ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratishi kerak.

Bozor riski, global va milliy iqtisodiy omillar ta'sirida yuzaga kelib, bunday riskni kamaytirish uchun derivativ vositalar va xedjirlash amaliyotidan keng foydalaniladi. Operatsion risklar, ayniqsa raqamli bank xizmatlari rivojlanayotgan hozirgi sharoitda banklar uchun dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, texnologik xavfsizlik va ichki nazorat mexanizmlarini kuchaytirish orqali bartaraf etilishi mumkin.(1-jadval)

1-jadval. Tijorat banklarida risk turlari va boshqaruv strategiyalari

Risk turi	Tavsifi	Potensial oqibatlar	Aniqlash usuli	Boshqaruv strategiyasi
Kredit riski	Qarzdorlar tomonidan kredit majburiyatlarining bajarilmasligi	Aktivlar yo'qotilishi, foiz daromadining kamayishi	Kredit reytingi, tahliliy modellash	Kredit skoring, kafillik, portfel diversifikatsiyasi
Likvidlik riski	Bankning qisqa muddatli majburiyatlarini bajara olmaslik riski	Ishonch yo'qolishi, jarimalari	Likvidlik ko'rsatkichlari, stress-test	Pul oqimlarini rejalashtirish, likvid aktivlarni saqlash
Bozor riski	Foiz stavkalari, valyuta kursi yoki moliyaviy aktivlar narxining o'zgarishi	Sof foydaning kamayishi, kapital yo'qotilishi	VAR, ta'sirchanlik tahlili	Xedjirlash, limitlar belgilash
Operatsion risk	Tizimlar, xodimlar yoki jarayonlardagi xatoliklar	Jarimalar, obro'ga putur yetishi	Audit, xavfsizlik monitoringi	Standart operatsiyalar, texnologik xavfsizlik
Huquqiy va muvofiqlik riski	Qonunchilik talablariga rioya qilmaslik	Litsenziya bekor qilinishi, sanksiyalar	Audit, muvofiqlik monitoringi	Yuridik bo'lim faoliyatini takomillashtirish, o'quv seminarlar
Strategik risk	Bank strategiyasining noto'g'ri tanlanishi	Litsenziya bekor qilinishi, sanksiyalar	SWOT tahlil, bozor monitoringi	Strategik rejalashtirish, raqobatbardoshlik tahlili

Huquqiy va strategik risklar bank faoliyatining uzoq muddatli istiqbolli rivojlanishiga ta'sir qiluvchi muhim omillardan biri bo'lib, ularni oldini olish uchun bozor monitoringi, raqobatchilar tahlili va strategik rejalashtirish zarur bo'ladi. Risklarni boshqarish tizimida, odatda, uchta asosiy bosqichni ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bular: riskni tahlil qilish (aniqlash va baholash), riskni nazorat qilish (monitoring) va riskni kamaytirish (neytrallashtirish).

Risk tahlili bosqichida riskni aniqlash va baholash jarayonlari amalga oshiriladi. Bu bosqichda risk darajasiga ta'sir etuvchi omillar hamda bank operatsiyalarini amalga oshirishda risklar yuzaga kelish ehtimolini oshiruvchi



yoki kamaytiruvchi holatlar aniqlanadi.

Riskni nazorat qilish bosqichi risklilik darajasini kamaytirish yoki uni butunlay bartaraf etish maqsadida amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Riskni nazorat qilishning uchta asosiy usuli mavjud: ichki audit, tashqi audit va ichki nazorat tizimi orqali nazorat.

Risklarni kamaytirishning ham uchta asosiy usuli mavjud:

Riskdan voz kechish — bu, tavakkalchilikka olib keluvchi faoliyatlardan o'zini tiyish orqali amalga oshiriladi. Bank uchun qabul qilib bo'lmaydigan risk mavjud bo'lgan operatsiyalardan voz kechish ko'zda tutiladi. Bu esa, o'z navbatida, bankning muayyan foydadan voz kechishiga olib kelishi mumkin.

Risk darajasini kamaytirish — bu usul o'zini-o'zi sug'urta qilish (zahira shakllantirish), diversifikatsiya, limitlar o'rnatish va minimallashtirish vositalari orqali amalga oshiriladi.

Riskni uchinchi shaxsga o'tkazish — bunday usul sug'urta qilish, xedjirlash va risklarni taqsimlash orqali amalga oshiriladi.

Banklarda risklarni boshqarish tizimi o'zaro bog'liq bo'lgan elementlardan iborat integratsiyalashgan tizim bo'lib, u riskli vaziyatlarda boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirish jarayonini tartibga soladi. Ushbu elementlar yordamida risklarni tahlil qilish, baholash, boshqarish hamda ijtimoiy-riskli munosabatlarni optimallashtirish bo'yicha samarali ishlar amalga oshiriladi. Bu esa bank moliyaviy tizimining barqarorligi va muvozanatligini ta'minlaydi.


Banklarda risklarni boshqarish tizimi bankning strategik maqsadlariga erishish, bank xizmatlarini ko'rsatish samaradorligini oshirish, barqaror intensiv rivojlanishni ta'minlash, iqtisodiy mustaqillik va raqobatbardoshlik uchun normal sharoitlar yaratishga xizmat qiladi.

Ta'kidlash kerakki, risklarni boshqarish tizimida har bir bank uchun individual yondashuv zarur. Risklarning kelib chiqish sabablari har doim ham umumiy emas: ular bankning faoliyat ko'lami, rivojlanish darajasi, ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati, ichki korporativ boshqaruv tizimi, kontragentlar, mijozlar, raqobatchilar, strategiyalar, risk darajasi va boshqa ko'plab omillarga bog'liq bo'ladi. Shu sababli har bir bank o'zining tashqi va ichki muhitiga mos ravishda moslashtirilgan, o'ziga xos risk-menejment tizimini ishlab chiqishi zarur.

Mazkur jarayonda tizimning umumiy xususiyatlarini ajratib ko'rsatish muhimdir. Risklarni boshqarish tizimi bankning umumiy boshqaruv tizimiga integratsiyalashgan bo'lsa-da, qarorlar qabul qilish jarayonida u bankning boshqa boshqaruv tuzilmalaridan mustaqil tashkil etilishi lozim.

Risklarni boshqarish murakkab va ko'p darajali tizim bo'lib, u quyidagi yo'nalishlar orqali amalga oshiriladi: bankning umumiy risk darajasini optimal holatda saqlash, samarali risk-menejment va korporativ ichki boshqaruvni shakllantirish. Risklarni boshqarish tizimining tarkibiga to'rtta asosiy kichik (quyi) tizim kiradi:

- Obyektiv (boshqariladigan) tizim,
- Subyektiv (boshqaruvchi) elementlar,
- Riskni boshqarish mexanizmi (funksional),
- Risk-menejment konsepsiyasi.



“1-rasm. Tijorat banklari risklarini boshqarish tizimining tuzilishi”



O'z navbatida, har bir quyi tizim bir nechta elementlardan tarkib topgan (1-rasm). Rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, boshqaruv tizimidagi barcha elementlar tijorat banklarida risklarni boshqarishning yaxlit majmuini qamrab oladi. Ushbu quyi tizimlarning har biri o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, risklarni boshqarish siyosatini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, risklarni boshqarish siyosati — bu bank tomonidan risklarni aniqlash, baholash, monitoring qilish va minimallashtirish bo'yicha qabul qilinadigan asosiy yo'nalishlar, tamoyillar va harakatlar majmuasidir. Albatta, moliyaviy risklarni boshqarishning muhim jihatlaridan yana biri — bu risklarni monitoring qilish va doimiy nazoratda ushlab borish hisoblanadi. Monitoringdan asosiy maqsad — riskli vaziyatlarni muntazam kuzatib borish, oldindan belgilangan risk parametrlari (cheklovlar, limitlar) doirasida faoliyat yuritilishini ta'minlash hamda har qanday me'yordan chetlanish holatlariga tezkor javob qaytarishdan iborat.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bank faoliyatining tez o'zgaruvchan bozor sharoitlari, shuningdek, O'zbekiston bank amaliyotida Bazel qo'mitasi tamoyillarini joriy etish rejalari hamda raqamli bank xizmatlarini kengaytirish tijorat banklarida risk-menejment tizimini takomillashtirish zaruratini vujudga keltirmoqda. Bizningcha, tijorat banklarida risk deyilganda kelajakdagi pul oqimlariga nisbatan noaniqlik, yo'qotish ehtimoli yoki rejalashtirilgan daromadga nisbatan kamroq daromad olish xavfi, bank operatsiyalarini amalga oshirishda oldindan rejalashtirilmagan xarajatlar paydo bo'lish ehtimoli tushuniladi. Shunday ekan, bank risklarini samarali boshqarish va risklarni kamaytirishga doir qarorlar qabul qilish — har qanday moliyaviy muassasa oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Tijorat banklari amaliyotida bir turdagi riskning o'zgarishi boshqa moliyaviy risklarning vujudga kelishi yoki ularning darajasi oshishiga olib kelishi mumkin. Bu esa, albatta, risklarni tahlil qilish usulini to'g'ri tanlash va unga qarshi chora-tadbirlar ishlab chiqishni taqozo etadi. Shu sababli, mavjud risk darajasini tahlil qilish hamda unga ta'sir etuvchi optimal omillarni tanlash muhim bosqichlardan biri hisoblanadi.

Xalqaro amaliyot tajribalari ko'rsatishicha, moliyaviy risklarni baholashda miqdoriy tahlil usullaridan keng foydalaniladi. Moliyaviy risklarni baholashda qo'llaniladigan mazkur usullar risklarga ta'sir etuvchi tashqi omillarni hisobga olish bilan birga, ichki korporativ boshqaruv bilan bog'liq omillarni ham inobatga oladi. Shuning uchun olingan natijalar tijorat banklari tomonidan ishlab chiqiladigan prognozlarning aniqligi va ishonchligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bank risklarini boshqarish strategiyasi bankning aktivlar va passivlarini boshqarish bo'yicha umumiy strategiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lishi lozim.

Bozor riski — bank faoliyatida uchraydigan eng murakkab risklardan biri bo'lib, o'z ichiga foiz stavkalari, valyuta va fond bozori risklarini oladi. Bozor riskini boshqarish samaradorligi, eng avvalo, bu kabi risklarni qanday modellarga va baholash usullariga asoslangan holda amalga oshirilishiga bog'liq hisoblanadi. Afsuski, hozirgi kunda aksariyat tijorat banklari uchun asosiy muammo — risklarni baholash usullarining yetarlicha rivojlanmaganligidir.

Ta'kidlash kerakki, bozor riskini boshqarish tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashdagi asosiy shartlardan biridir. Uni samarali boshqarishda milliy sharoitga moslashtirilgan modellarga asoslanish, har bir operatsion bo'linma darajasida risklarni baholash amaliyotini joriy etish, milliy qonunchilik asoslarini xalqaro amaliyot tajribalariga tayangan holda takomillashtirish hamda ichki korporativ boshqaruv tizimlarini ilmiy va metodologik jihatdan yangilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2023-yil 7-martdagi "Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 3427-son qarori. <https://lex.uz/docs/-7335794?ONDATE=25.04.2025>
3. Basel, J. A. A., & Oudat, M. S. (2020). Financial risk and the financial performance in listed commercial and investment banks in Bahrain Bourse. *International Journal of Innovation, Creativity and Change*, 13(12).
4. Kassi, D. F., Rathnayake, D. N., Louembe, P. A., & Ding, N. (2019). Market risk and financial performance of non-financial companies listed on the Moroccan stock exchange. *Risks*, 7(1), 1–29.
5. Li, Z., & Moreira, F. (2024). Financial openness, liability composition of banks, and bank risk: International evidence. *Journal of International Financial Markets, Institutions and Money*, 97, 102066. <https://doi.org/10.1016/j.intfin.2024.102066>
6. Saklain, M. S., & Williams, B. (2024). Non-interest income and bank risk: The role of financial structure. *Pacific-Basin Finance Journal*, 85, 102352. <https://doi.org/10.1016/j.pacfin.2024.102352>
7. Karimov, A. M. (2024-yil, may). O'zbekiston tijorat banklarida risklarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil ilmiy elektron jurnali*.
8. Toshpulatova, D. A. (2024-yil, V-son). Tijorat banklarida risk madaniyati. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil ilmiy elektron jurnali*.



- Toymuxamedov, I. R. (2024-yil, №5-son). Tijorat banklari faoliyatida risklarni pasaytirish yo'llari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy-ommabop jurnal.
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb-sayti: <https://cbu.uz/uz/statistics/dks/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Ei.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>